

# TARBIYADA O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

**Ulfat Ilxomovich Mahkamov**

**CHDPU professori**

**Ro'ziboyeva O'lmasoy Yo'ldosh qizi**

**CHDPU talabasi**

**Annотatsiya.** Ushbu maqolada tarbiya jarayoni asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish mazmuni va vazifalari, shakllari, vositalari kabilarning pedagogik shart sharoitlari yoritilgan.

**Аннотация.** На основе процесса воспитания в этой статье содержание формирования личности студента и выделены педагогические условия задач, форм, инструментов и т.п.

**Annotation.** Based on the process of education in this article the content of student personality formation and pedagogical conditions of tasks, tools, etc. are highlighted.

## **Kalit**

**so'zlar.** Ta'lim, tarbiya, shaxs, predmet, obyekt, mahorat, pedagogika, bilim, metod, malaka, ko'nikma, kompetensiya, muloqot madaniyati

Prezidentimiz Shavkat Miramonivich Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash-davr talabi" anjumanidagi nutqida: "Yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin"- degan g'oyalari bugungi kunda ta'lim - tarbiya tizimini isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishni talab etadi.

Chunki, tarbiya-bu yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan, ular ning jamiyatda muvaffaqiyatli yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yuksak insoniy xususiyatlarini tarkib toptirish jarayoni hisoblanadi. Shu jihatdan ham tarbiya shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida shakllanadi.

Tarbiya faqatgina oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlarda, uning yetakchilari, g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar muhim o'rin tutadi. Tarbiya ta'limga nisbatan kengroq tushunchadir. Ulug' olim, mutafakkir Arastuning ta'kidlashicha: "Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi; iste'dodga, ilmga, mashqqa". Shunga ko'ra tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishi lozim:

-tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb -milliylikning o'ziga xos an'ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;

bilish, har bir bola, o'smir va yoshlarning o'ziga xosligini hurmat qilish;

-o'quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil etishda ularning yosh jihatlariga mos turli xil ma'naviy- ma'rifiy tadbirlarga qatnashishini ta'minlash, ijtimoiy foydali, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiya shaxs kamolotining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatli ta'minlaydi. Shu jihatdan ham tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

-maqsadning aniq ekanligi;

-faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;

-bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiya ta'lim jarayonida olgan bilimlariga uyg'un bo'lishi, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasini hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar yosh avlod ongiga Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga oid g'oyalarni singdirishda kompleks ta'sir ko'rsatadi. Ularda sog'lom hayot, sog'lom turmush tarzi, barkamollik, milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar asosiy o'rin egallaydi. Oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish bevosita o'qitish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan masalalarni amalga oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog'liq. Tarbiyaviy ishlar jarayoni o'quvchilarning ruhiy holatini yuqori samaradorlikka erishish, ma'naviy –axloqiy jihatdan tarbiyalash-xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosi umumbashariy qadriyatlarga, urf-odat va an'analar asosida intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

-o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish;

-tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish;

-tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi.

Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarning yuksak axloqiy fazilatlar egasi qilib tarbiyalash jarayonlarini, shakl va yo'llari hamda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda milliy qadriyat va urf-odatlardan keng foydalanadi.

Ularni tarbiyaviy jihatdan hayot va faoliyatga tayyorlash ishlariga alohida e'tibor beriladi. Shu jihatdan ta'limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda yangi O'zbekiston taraqqiyotiga asoslanish eng muhim hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillari hisoblangan:

-insonparvarlik, ezigulik, bunyodkorlik, milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish bilan yosh avlodni jamiyat ehtiyojlari va talablariga mos ravishda tarbiyalash, tarbiyaviy ishlar jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning

yo'naltiruvchi, baholovchi va samaradorlikni ta'minlovchi asoslariga tayangan holda bu boradagi faoliyat samaradorligiga erishish, tarbiyaviy ishlarda eng avvalo milliy, umuminsoniy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg'unligiga tayangan holda strategik maqsadlarga erishishdan iborat, tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishida ta'lim tizimida olib boriladigan ishlarda yangi O'zbekiston g'oyasini, jamiyat va davlat manfaatlarini ifodalovchi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati, o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltirish, o'qituvchining tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirish, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor berish, muloqot jarayonida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish o'quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatidan keying holatini qiyoslab baho berish, o'qituvchi tarbiya uslublari natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish, kamchiliklarini bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Ushbu jarayonda har bir o'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri, axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishonтира olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bu o'rinda o'qituvchining muloqot madaniyati, ma'naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik muloqotning o'ziga xos an'analari, milliyligimizga xos bo'lgan shakl va metodlari mavjud. Yangi O'zbekiston tarqqiyotida ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish kabilar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. Bu borada davlatimiz tomonidan hozirgi zamon o'qituvchisidan, hayot sinovlariga bardoshli bo'lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topish, yuksak ma'rifatli va ulkan salohiyatli bo'lish, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi. Shu jihatdan ham barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o'rin egallaydi. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihati barkamol avlodning har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e'tiborni qaratishda o'qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda mahoratlikka, metodikaga tayanishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki insoniyatning boy ma'naviy-tarixiy maerosidan tarbiya jarayonida samarali foydalanish o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyat sohibi qilib voyaga yetkazish, unda axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Mirziyoyev Sh.M. <<Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. Toshkent. 2021. T. Tasvir. 14-b.
2. Mirziyoyev. Sh.M. "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" anjumanidagi nutqidan. Toshkent. 2017.
3. Tarbiyaviy ishlar metodikasi./o'quv qo'llanma/O.M. Jabborova. <Book trade>2022. 13-

19b.

4.B.S.Axmadaliyev,O'.N.Farmonov/Tarbiyaviy  
qo'llanma.Toshkent:<Book trade 2022>.3-11b.

ishlar

metodikasi/

O'quv